

Olimjonova Zarnigor Shokirjon qizi

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Institutining Farg'ona

Mintaqaviy filialining Qo'girchoq teatr aktyorligi 2-kurs talabasi

zulfizarshakirjanovna@gmail.com

ABDULHAMID CHO'LPON SHE'RLARINING BADIY TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jadid adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning XX asr o'zbek she'riyatidagi ijodi, she'rlarining mavzu ko'lami haqida alohida to'xtalib o'tilgan. Hamda "Kuz" va "Xazon" she'rlari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Cho'lpon, so'z, she'r, she'riyat, shoir, adabiyot.

Annotation. In this article, one of the prominent representatives of modern literature Abdulhamid Sulaymon's son - Cho'lpon's contribution to the Uzbek poetry of the XX century, the subject of his poems is highlighted and discussed separately. In addition, the analysis of his "kuz va hazon" poems has been conducted.

Key words: Cholpon, word, poem, poetry, poet, literature.

XX asr o'zbek adabiyotining eng yirik siymolaridan biri Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpondir. Cho'lponni xalqimiz erki, ozodligi yo'lida imon, etiqod timsoliga aylanganligidir. U "go'zal Turkiston"ni mustaqil, erkin holda ko'rishni shu qadar orzu qildiki, Bolshevik mafkurachilari uning og'zini berkitib nafasini chiqazmay turganda ham, u "kishan kiyma, bo'yin egma, ki sen ham hur tug'ilg'onsen!" deya millatdoshlarini kurashga chaqira oladi. (Abdulhamid Cho'lpon. Go'zal Turkiston, she'rlar. Toshkent "Ma'naviyat" 1997.)

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon adabiyotning juda ko'p tur va janrlarida samarali ijod etgan bo'lsa-da, shoir sifatida ko'proq shuhrat topdi. Uning o'z davrida to'plamlarda bosilib chiqqan va bugun ma'lum bo'lgan she'rlari u qadar ko'p emas. Lekin ular o'zbek ziyolilariga chaqmoqdek ta'sir qilgan va butun adabiyotni o'z izmiga olgan edi. 20-yillarda o'zbek she'riyatining chinakam Cho'lpon davridir. U she'riyatga erta kirib keldi. Ilk she'rlaridanoq millat shoiri sifatida tanildi. Masalan, bizga ma'lum bo'lgan va matbuotda chop etilgan ilk she'ri "Turkistonli qardoshlarimizga" o'ksik vatan – Turkiston jarohatlari haqida edi. Ushbu she'rida ma'rifatsizlik balosiga yo'liqqan, foyda-zararni unutgan, yaxshi yomonni tanimaydigan, tor manfaatlari doirasida ko'milib qolgan, topganini boshqalarga berib, o'zi yalong'och qolgan bir so'z bilan aytganda, millat sifatida adoyi tamom bo'lgan bizning xalq haqida edi (B. Qosimov, SH. Yusupov, U. Dolimov, SH. Rizayev, S. Ahmedov Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti/darslik Toshkent "Ma'naviyat" 2004. 436- bet).

Cho'lpon tom ma'nodagi milliy shoir. U yurt hayotidagi yutuqlar, ibratli yumushlardan qanchalik quvonsa, erksizlik va tutqunlikdan, tengsizlik va adolatsizlikdan shunchalik iztirob chekadi. Shoir she'rlarida dard va alamning ufurib turishi ham, avvalo, millat, Vatanga muhabbat tuyg'ularining kuchliligi bilan izohlanadi. Shoir Vatan istiqbolini ko'zlab dard chekadi, qiynaladi va o'zining ana shu yurak tug'yonlarini rang-barang shakllarda ifodalaydi. Cho'lpon she'riyatining asosiy mavzusi – Vatan, bosh qahramoni esa, millat, xalq. Uning har qanday she'ri zamirida millat va yurt erki, taraqqiyoti g'oyasi yotadi. Cho'lpon o'z she'rlarida, zamonaviy va xalqchil g'oyalarni olg'a surar ekan tom ma'nodagi rostgo'y shoir sifatida doimo haq so'zni aytadi, haqiqatni yozadi. Cho'lpon she'riyatining mavzu doirasi juda keng. Shoir o'z asarlarida yangi davr muammolari, vatan qismati, inson qadr-qimmatini, xalq qudrati, erk, ma'naviyat hamda ma'rifat taraqqiyoti kabi zamonaviy masalalarni aks ettiradi. Shu bois shoir ijodida zamovaviy ruh bo'rtib turadi¹ Cho'lpon 1925-yillarga kelib «Muhit kuchli

¹ Mirzayev, "XX asr O'zbek adabiyoti". "Yangi asar avlodi", 2005.161-bet).

ekan, egdim bo‘ynimni», deya ijod sohasidagi qarashlarining o‘zgarganligini e’tirof etadi. Uning «Mening tovushim», «Kuz», «Buzilgan o‘lkaga», «Yupatmoq istagi» kabi dardchil she‘rlari yoniga «Qizil bayroq», «Xalq», «Qo‘zgalish», «Qor», «Bir tilla qo‘ng‘iz», «Yaproq uchun» kabi umidli, armonli va fayzli she‘rlari qo‘shildi. Shoir yaratgan ikki yuzdan ortiq she‘riy asarlar o‘z xalqi, yurti, baxti, kelajagi, mustaqilligi, ozodligi haqidagi kurashning adabiy solnomalaridandir. (Sobir Mirvaliyev. O‘zbek adiblari – “Fan” nashriyoti- 1993. 17-bet).

Cho‘lpon tom ma‘noda XX asar o‘zbek namoyondalari ichida millat ruhi uchun haqiqiy mash‘ali bo‘lib, uni ozodlik sari yetaklab kunduz -quyosh, tunda esa, oy kabi yorita olgan xalqchil shoirdir. Uning she‘rlaridagi yangicha ruh, so‘zning takrorlanmas jilolari, ohoriy misralarning ba‘zi o‘rinlarda bir-birini inkor qilgani holda yangicha mulohazalarga yo‘l ochadi. O‘qirmanni yanada o‘ylantirib, unga tinchlik bermaslikka da‘vat etadi.

Shoirning so‘zi bilan aytganda “Adabiyot yashasa millat yashaydi” iborasi, dunyo xalqlarining mavjudligi uning tili bilan belgilansa, millati esa uning ruhi bo‘lmish adabiyoti va san‘ati bilan namoyon bo‘ladi. Cho‘lpon asarlarida ana shunday yangicha ruhiyat bag‘ishlagan o‘rinlar bilan o‘z mahoratini ko‘rsata olgan ijodkordir.

Cho‘lpon she‘rlaridagi qamrovi keng bo‘lgan mavzu bu bevosita vatan va uning ozodligi mavzusi, bo‘lib uning “Kuz” she‘rida esa, G‘arb va Sharq o‘rtasidagi urushning ayanchli tasviri aks ettirilgan she‘rida ko‘m- ko‘k bargning kuzda sarg‘ayishi tutqun Sharqni aytsa, ko‘zi qonga to‘lgan, bo‘ron kabi bostirib kelyotgan G‘arbni nazarda tutadi. Shoirning bevosita vaziyatni kuz sifatida tasvirlashi ham bejizga emas, g‘arbning bosqini ko‘m- ko‘k yoz bargini, misoli kuz kabi sarg‘aytirib xazon qilib to‘kdi.

Ko‘m-ko‘k ekan sarg‘aydilar yaproqlar, Og‘riq, mag‘lub, tutqun Sharqning yuzidek. Bo‘ronlarning ko‘zlari kim o‘ynoqlar, G‘olib g‘arbning qonga to‘lgan ko‘zidek.

Shoir keyingi misralarda esa qora bulut G‘arb esa, Sharqqa parda singari yopganini, G‘arbning lashkari, zahar botirilgan o‘qlarini bamisoli yoz kabi porlayotgan Sharq insonlari ko‘ksiga qadaganini, keyingi misrada Sharqqa balo kelganligini hattoki qarg‘alar ham sezgandek qator-qator bo‘lib o‘tishi (azaldan qarg‘alar to‘dalashib osmondan uchib o‘tishi xosiyatsizlik belgisi sifatida qaralagan). Odamlarning tutqunlikdan ichidan ezilganligi, jonlililar ya‘ni, tiriklarning ko‘pi so‘ngi tun kunini kutishi aks ettirilgan.

Qora bulut to‘dasi kim ko‘klarni

Sharqni yopgan parda yanglig‘ yopmishdir Kuz qo‘shig‘i og‘u to‘liq o‘qlarni

Yoz bag‘riga hech sanoqsiz otmishdir.

Balo yanglig‘ qator-qator chizilib,

Ko‘k yuzidan qarg‘alar ham o‘tarlar;

Sharqdek ichdan yashiringina ezilib,

Ko‘p jonlilar so‘nggi tinni kutalar.

Cho‘lpon she‘riyati mazmunan boy va shaklan go‘zal. Cho‘lpon

she‘riyatining asosiy xususiyatini erksevarlik, millatparvarlik, haqqoniylik va xalqchilik, g‘oyaviy aniqlik va badiiy go‘zallik singari fazilatlar tashkil etadi. Shoir asarning shakl va mazmuniga doir barcha unsurlarini qunt bilan ishlab, ularga jilo va sayqal beradi. Bunda shoir til imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanadi. Shuning uchun ham Cho‘lpon she‘rlari tilning aniq-ravonligi obrazli va jozibadorligi maftun etadi.²

Cho‘lpon navbatdagi “Xazon” she‘rida o‘zining taqdirini tavsirlagan bo‘lib, shoir she‘rning 1-bandida tardi aks san‘atidan mohirona foydalanadiki, har bir so‘zning ma‘no va tovush sig‘imlari favqulodda kengayib ketgandek bo‘ladi. Bor-yo‘g‘i ikki obraz-“gezargan tuproq” bilan “qizorgan yaproq” obrazlari orqali she‘rning umumiy ma‘zmunini ochib beradi. She‘rning birinchi misrasidayoq tuproq bu inson bo‘lib, shoirning boshiga kelgan fojealar natijasida gezarganligini ma‘lum qilgandek. “So‘ng damda yaproqlar qizarib oldilar” misrasida yaproqlarning qizarishini kuz chog‘ida daraxtga xiyonat qiladigan

² Mirzayev, “XX asr O‘zbek adabiyoti”. “Yangi asar avlodi”, 2005.166-bet).

yaproqlar misolida, hayot yo‘lida uchragan sotqin insonlarni, tasvirlab, bargning qizarishi sotqinlik uyatidan ekanligini aytish mumkin.

Kuz chog‘i... tuproqlar gezarib qoldilar,

Gezarib qoldilar kuz chog‘i tuproqlar.

So‘ng damda yaproqlar qizarib oldilar,

Qizarib oldilar so‘ng damda yaproqlar.

Shoir she‘rning keyingi bandida qarg‘alar bog‘larda qag‘lashib qoldilar

deyishi orqali, qarg‘alar bu yerda yomon insonlar, bog‘lar esa shoir va uning do‘stlari ijodidir. She‘rda yong‘oqning qo‘llanishi bu shoirning o‘zi bo‘lib, qarg‘alarning bog‘larda qag‘alashi bu dunyodan kimlarningdir qismatini uzilishini ko‘rsatadi. Cho‘lpon “Ey sovuq ellardan muz kiyib kelganlar” deya sovuq ellardan uchib keluvchi qora qarg‘alar haqiqatlar qotili bo‘lmish Sovet hukumati boshida turgan insonlar timsolida qo‘llanilgan bo‘lib, “menim bog‘imdan mevamni terganlar”, deya bog‘ shoirning ijod olamidir, ijodining bebaho xazinalari esa bog‘ning mevasi. Qora niyatli, sovuq insonlar bu bog‘lardagi ijodkorga changal solib, shavqatsiz qismatga duchor qilganlar.

Qarg‘alar bo‘larda qag‘lashib qoldilar, Bilmadim, kimlarning qismati uzilur? Yong‘oqqa yopishib bir changal soldilar, Bilmadim, kimlarning umidi yo‘q bo‘lur?

Ey sovuq ellardan muz kiyib kelganlar,

U qo‘pol tovushingiz qirlarda yo‘q bo‘lsin !

Ey mening bog‘imdan mevani terganlar,

U qora boshingiz yerlarga ko‘milsin!

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon XX asr o‘zbek she‘riyatda vazn va qofiya imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanib, barmoq vaznda samarali ijod qilgan shoirdir. Cho‘lpon she‘rlarining aksariyat qismida erk, ozodlik va davrning ijtimoiy muammolari yoritilgan. Cho‘lpon she‘rlari mavzu ko‘lamining kengligi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ijodkor she‘rlarini o‘qigan o‘qirman she‘rni tushunishga qiynalymaydi, chunki she‘r tilining soddaligi, uslub ravonligi ham o‘quvchining tahlil qilishiga anchagina yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sobir Mirvaliyev. (1993). O‘zbek adiblari. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Abdulhamid Cho‘lpon. (1997). Go‘zal Turkiston, she‘rlar. Toshkent: Ma‘naviyat.
3. B. Qosimov, SH. Yusupov, U. Dolimov, SH. Rizayev, S. Ahmedov (2004). Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti/darslik Toshkent: Ma‘naviyat.
4. S. Mirzayev. (2005). “XX asr O‘zbek adabiyoti”. Toshkent: Yangi asr avlodi.
5. D. Quronov, (2022). Turkiy adabiyot durdonalari Cho‘lpon 12-jild